

## **GRADASIYANING BAHO TUSHUNCHASI BILAN ALOQASI**

**Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna**

dosent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) Andijon davlat chet tillari  
institute Andijon, O'zbekiston  
[Mahmudova1076@gmail.com](mailto:Mahmudova1076@gmail.com)

Baho tushunchasi bilan gradatsiyaning aloqasi Ye.M. Volf[2.229], N.D. Arutyunova[1.341], T.A. Kosmed[6.350] tadqiqotlarida keltiriladi. Ye.M. Volf monografiyasida baholash gradatsiyaviyligi, uning o'sish yoki kamayish tomonga harakati imkoniyatini aniqlaydi; baholash belgilarining gradatsiyalanish vositalari va baholash shkalalari tuzilmasi ko'rib chiqiladi tadqiqotlarida keltiriladi. Ye.M. Volf monografiyasida baholash gradatsiyaviyligi, uning o'sish yoki kamayish tomonga harakati imkoniyatini aniqlaydi; baholash belgilarining gradatsiyalanish vositalari va baholash shkalalari tuzilmasi ko'rib chiqiladi[2.229]. N.D. Arutyunova ishida shuningdek baholash belgilarini gradatsiyalanish qobiliyati namoyon bo'ladi, umumiy baho va xususiy baho uchun turlicha izohlanadigan me'yorlar tushunchasi ko'rib chiqiladi, baholovchi so'zlarning gradatsiyaviy funksiyasi qayd qilinadi[1.341].

Til gradatsiyalari va gradatsiyalanganlik tushunchalari masalalariga bag'ishlangan dissertatsiya ishlarida ingliz tili materiallaridagi keltirilgan nomlarning gradatsiya xususiyatlari ko'rib chiqiladi[4.204]; nemis tilidagi turli nutq qismlari leksemalari bilan ifodalangan sifat belgilarini gradatsiyalashtirish usullari[3.17]; rus tilining mavjud holati gradatsiya xususiyatlari[7.21]. Gradatsiya va gradatsiyaviylikning kompleks tavsifi Ye.I. Sheygal[8.96] va S.M. Kolesnikovaning[6.178], monografiyasida keltirilgan.

Ye.I. Sheygal ishida ingliz tilining leksiko semantik tizimidagi gradatsiya hodisalari turli jihatdan tadqiq qilinadi[8.176]. Gradatsiya sinonimiya, antonimiya va boshqa tizimli munosabatlar qatori bilan ajratiladigan semantik munosabatlarning muhim turi sifatida ko'riladi. Ye.I. Sheygal gradatsiyaviy

semantik belgilar va gradatsiyalanish vositalarini chegaralaydi. Birinchisi miqdoriy bahoga yaqinlashtirilgan va belgi miqdorini o'sish/kamayish shkalasi bo'yicha o'zgartirishga yo'l qo'yiladigan belgilarni aks ettiradi. Turli til birliklariga tegishli bo'lgan belgilarning gradatsiyalanish vositalari intensivlikning funktsional-semantik tushunchasiga birlashtiriladi.

Monografiyada shuningdek gradatsiya shkalalari, gradatsiyaviy shkala turlari va paradigmalari ham tahlil qilinadi; nutqning turli qismlari birliklaridagi gradatsiyaviylik diapazoni ko'rib chiqiladi. Semantik ajralish jarayonida miqdoriy baholash komponenti funktsiyalari va gradatsiyaviy semantikaga ega mohiyatni shakllantirishda so'z ichidagi tarmoqlanish ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek gradatsiyaviy semantik belgilarning matndagi o'zgarishi ham tadqiq qilinadi. Gradatsiyaning bir qator kommunikativ funktsiyalari va gradatsiyaviy matnlar turlari ko'rib chiqiladi: miqdoriy bahoni aks ettirish va aniqlash, affektiv-ekspressiv funktsiya va boshqalar.

S.M. Kolesnikova monografiyasida gradatsiyaviy hodisalarga boshqacha yondashuvni ko'ramiz[5.178]: gradatsiyaviylik tushunchasi funktsional-semantik maydon sifatida ko'rib chiqiladi. Maydon asosi qiyoslash bosqichlarining grammatik tushunchasi va o'lchovlarni shakllantiradi.

Gradatsiyaviylikning qo'shimcha vositalariga muallif uyushiqalar, olmosh, yuklamani kiritadi. Shunday tarzda agar Ye.I. Sheygal intensivlik tushunchasidan leksiko-semantik gradatsiyani tavsiflashda foydalansa bunda S.M. Kolesnikova gradatsiyaviylikni ifodalashning o'z usul va vositalariga ega alohida tushuncha sifatida belgilaydi.

S.M. Kolesnikova tadqiqotlarida gradatsiyaviylikning semantik izohi va uni ifodalash vositalari inson ongida til holatlarini aks ettirish semantikasi tamoyiliga tuziladi, u til birliklarini taqdim qilishning usullarini ishlab chiqish va nutqda ularni birgalikda qo'llash imkonini beradi. Muallif gradatsiyaviylik semantikasi gradatsiyalanayotgan ob'ektga sub'ektning o'lchov munosabatini tildagi ifodasidan

iboratligini qayd qiladi»[5.178]. S.M.Kolesnikova gradatsiyaviy semantikada inson omilini qayd qiladi: o'lchov munosabatlarini aks ettirish vositalarini tanlash so'zlovchining nuqtai nazariga bog'liq.

Tahlil qilinayotgan tadqiqotda so'zlovchining o'lchov munosabati tizimi sifatida turli gradatsiyadagi vositalar ko'rib chiqiladi. Leksik gradatsiya gradatsiyaviy semantikasi tartibga soluvchi asosiy til gradatsiyasi sifatida ajratiladi, uning ichida sifat va sifat-baholash nomlari shuningdek o'lchov va gradatsiyalar pog'onaviylik semantikasini aks ettirishning asosiy vositalari sifatida chiqadi. Shuningdek gradatsiyaviylikning so'zni shakllantirish usullari va gradatsiyalanishning sintaksis vositalari ajratiladi. Gradatsiyaviylik tushunchasining miqdor, baho, intensivlik bilan aloqasi qayd qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 341 с.
2. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985. – 229 с.
3. Галич Г.Г. Градуальные характеристики качественных прилагательных, глаголов и существительных современного немецкого языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04 / Ленингр. гос. ун-т им. А.А. Жданова. – Л., 1981. – 17с.
4. Кирьян А.Д. Градация как способ организации лексико-семантической группы (Качественные прилагательные со значением характеристики человека в современном русском языке): Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.01. – М., 1981. – 204 с.
5. Колесникова С.М. Семантика градуальности и способы ее выражения в современном русском языке. – М.: Моск. пед. ун-т, 1998. – 178с.
6. Космеда Т.А. Аксиологічні аспекти прагмалінгвістики: Формування і розвиток категорії оцінки. – Львів: ЛНУ ім. Івана Франка, 2000. – 350 с.

7. Федотова С.О. Градуальні особливості іменників стану (на матеріалі російської мови): Автореф. дис. ... канд. філол. наук: 10.02.01 / Харк. держ. ун-т. – Харків, 1995. – 21 с.
8. Шейгал Е.И. Градация в лексической семантике: Учебное пособие к спецкурсу. – Куйбышев: Куйбыш. гос. пед. ин-т, 1990. – 96 с.

